



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

| | |
|--|----|
| 1. Аликариев Нуриддин МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВОУ..... | 5 |
| 2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANGLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI..... | 12 |
| 3. Сейтова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ..... | 21 |
| 4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI..... | 28 |
| 5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI..... | 36 |
| 6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 43 |
| 7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАЪЛИЛИ..... | 51 |
| 8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI..... | 57 |
| 9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA..... | 66 |
| 10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI..... | 73 |
| 11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI..... | 83 |
| 12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION..... | 90 |

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abduraxmonova Manzura,

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc),

Fargʻona davlat universiteti, Ijtimoiy ish kafedrası professori


e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

Akramov Davronbek,

Fargʻona davlat universiteti, tayanch doktoranti

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANLARINI IJTIMOIYLASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOY XODIMINING HAMKORLIGI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13341859>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dastlab ijtimoiylashuv, xavf guruhidagi oila va uning farzandlariga oid tushunchalar nazariy hamda sotsiologik tadqiqot dalillari asosida tahlil qilingan. Shuningdek maqolada umumtaʼlim maktablarida xavf guruhida boʻlgan oila bolalar bilan ishlashda oʻqituvchilar va mahalla ijtimoiy xodimlari oʻrtasidagi hamkorlikni empirik oʻrganish natijalari keltirilgan. Xavf guruhidagi oila bolalari, bir tomondan, taʼlim muassasalarida oʻqitiladi, tarbiyalanadi va ijtimoiylashtiriladi, ikkinchi tomondan, ular ijtimoiy himoya muassasalari, mahalla ijtimoiy hodimi tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi, ikki ijtimoiy subʼektning toʻliq oʻzaro hamkorligini taʼminlash juda muhimdir. Maqolada maxsus ishlab chiqilgan tadqiqot soʻrovnomasi yordamida amalga oshirildi, unda respondent xisoblangan oʻqituvchilarning mahalla ijtimoiy xodimlari bilan oʻzaro munosabatlarining xususiyatlari kabilar aniqlashtirilgan.

Tayanch soʻzlar: xavf guruhida boʻlgan oila bolalari, oʻqituvchilar, mahalla ijtimoiy xodimlari, ijtimoiylashuv, hamkorlik.

Абдурахмонова Манзура,

доктор социологических наук (DSc),

Профессор кафедры социальной работы

Ферганского государственного университета

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

Акромов Давронбек,

докторант Ферганского государственного университета,

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

СОТРУДНИЧЕСТВО ШКОЛЬНОГО И СОСЕДСКОГО СОЦИАЛЬНОГО РАБОТНИКА В СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ ИЗ СЕМЕЙ ГРУППЫ РИСКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе данных теоретических и социологических исследований анализируются понятия социализации, семей и детей группы риска. Также в статье представлены результаты эмпирического исследования сотрудничества педагогов и общественных социальных работников в работе с детьми из семей группы риска в общеобразовательных школах. Дети из семей группы риска, с одной стороны, получают образование, воспитание и социализацию в образовательных учреждениях, с другой стороны, их поддерживают учреждения социальной защиты, участковый социальный работник. Очень важно полное и всестороннее сотрудничество этих двух социальных субъектов. Анализ проведен с помощью специально разработанной исследовательской анкеты, в которой были определены особенности взаимодействия учителей с социальными работниками микрорайона.

Ключевые слова: дети из семей группы риска, педагоги, участковые социальные работники, социализация, сотрудничество.

Abdurakhmonova Manzura,

Doctor of Sociology (DSc),

Professor, Department of Social Work, Fergana State University

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

Akramov Davronbek,

Fergana State University, PhD student

e-mail: davronbek_ao95@mail.ru

**COOPERATION OF SCHOOL AND NEIGHBORHOOD SOCIAL WORKER IN THE
SOCIALIZATION OF CHILDREN FROM FAMILIES AT RISK****ABSTRACT**

This article analyzes the concepts of socialization, families and children at risk based on theoretical and sociological research. The article also presents the results of an empirical study of the cooperation of teachers and public social workers in working with children from families at risk in comprehensive schools. Children from families at risk, on the one hand, receive education, upbringing and socialization in educational institutions, on the other hand, they are supported by social protection institutions, a district social worker. Full and comprehensive cooperation between these two social subjects is very important. The analysis was carried out using a specially developed research questionnaire, which identified the features of interaction between teachers and social workers of the microdistrict.

Key words: children from families at risk, teachers, local social workers, socialization, cooperation.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz», – degan fikri, shuningdek, jadidchi ma’ifatparvar Fitratning “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq [1]”, – degan fikrlariga davlatimiz rahbarining alohida urg‘u berishi zimmamizda xalq manfaatlari, farzandlar kelajagi, ularning oiladagi tarbiyasi, muhiti va parvarishiga oid mas’uliyat nechog‘li yuqori ekanidan dalolatdir. Darhaqiqat, farzand tarbiyasi oila muhitiga, ota-onalar tomonidan berilgan tarbiyaga bog‘liq.

Bugungi oila va maktabda bolalarni ijtimoiylashtirish muammosini tushunishga ilmiy yondashuvni, bolaning erkin, ijtimoiy faol, ijodiy va mustaqil shaxsini shakllantirishga qaratilgan ta’lim va tarbiya jarayonini qurishda yangi shart-sharoitlarni zaruriy hisobga olishni talab qiladi. Shu

munosabat bilan, umumta'lim maktablarida ayniqsa xavf guruhidagi oila bolalarini ijtimoiylashtirish zamonaviy ijtimoiy-sotsiologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bolaning ijtimoiylashuvi sotsiologiya, pedagogika, falsafa, psixologiya, antropologiya va boshqa fanlarning ilmiy qiziqish mavzusidir. Avvalo, jahondagi ijtimoiy jarayonlarning jadallashuvi, jamiyatning yangi tipini va shunga mos ravishda zamonaviy inson shaxsiyatini barpo etishning global tendensiyalari shakllanmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchi shaxsiga, unga ta'sir etuvchi omillar xisoblangan oilasiga va ta'lim muassasasiga yuqori talablar qo'yilmoqda.

METODOLOGIYA

Ijtimoiylashuvni ikki turga bo'lish mumkin: Birlamchi ijtimoiylashuv va ikkilamchi ijtimoiylashuv. Birlamchi ijtimoiylashuv oilada sodir bo'ladi va bolalar birinchi navbatda o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini o'rganadilar, tilga ega bo'ladi va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantiradilar. Oilada bolalar axloq, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy rollar haqida fikr yuritishning muayyan usullariga ijtimoiylashuvi amalga oshadi. Albatta, birlamchi ijtimoiylashuv natijasida yuzaga keladigan ijtimoiylashuv ko'p jihatdan oilaning ijtimoiy sinfi, etnik, diniy va madaniy kelib chiqishi, munosabatlari va oiladagi xavf omillariga bog'liq. Oilalar bolalarning birinchi ijtimoiylashuv makoni, dastlabki tarbiya o'chog'idir. Bu borada Abdurauf Fitrat: "Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa hamda intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi" [2], deb ta'kidlagan.

Oila, har qanday ijtimoiy institut singari, ma'lum funksiyalarga ega, masalan, ulardan eng muhimi quyidagilar:

1. Reproduktiv
2. Maishiy va maishiy
3. Iqtisodiy
4. Ta'lim
5. Ijtimoiy nazorat funksiyasi
6. Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) funksiyasi [3]

Ushbu funksiyalarning har biri o'ziga xos tarzda muhimdir, ammo oilada bolaning ijtimoiylashuvi asosiy tarkibiy qism bo'lib, barcha oila a'zolarining alohida e'tibor va mas'uliyatini talab qiladi. Ijtimoiylashuvning asosiy agentlari ota-onalar va qarindoshlar (buvilar, bobolar, aka-ukalar, opa-singillar, xolalar, amakilar va boshqalar). Aynan shu odamlar bola bilan yoshidan boshlab muloqot qilishadi, uning atrofida ma'lum bir muhitni yaratadilar va o'sish jarayonida unga atrofda dunyo, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, to'g'ri xulq-atvor hamda jamiyatda o'zini namoyon qilish to'g'risida birinchi bilimlarni berishadi.

Umumiy ma'noda "sotsializatsiya" ijtimoiylashuv, ijtimoiyni o'zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi, natijada ijtimoiy shaxs shakllanadi. "Sotsializatsiya" tushunchasini o'rganish falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik ilmiy adabiyotlarda aks etadi. Sotsializatsiya (Ijtimoiylashuv) tushunchasi "faollik", "ijtimoiylik", "individuallik", "sub'ektivlik", "muloqot", "ijodkorlik" kabi toifalarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, «ijtimoiylashuv» atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G.Giddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) kitobida mazkur atamani «ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir» [4] degan fikrni bildiradi.

Falsafa qomusiy lug'atlarida ijtimoiylashtirish tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: ijtimoiylashish insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashish tushunchasi esa jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir [5].

Ko'pchilik ko'cha, maktab, ommaviy axborot vositalari bolaga ko'proq ta'sir qiladi, deb hisoblashadi, ammo shunga qaramay, sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlarning ta'siri boshqa omillarning ta'siridan kuchliroqdir: oilaning ta'siri - 40%, ommaviy

axborot vositalari-30%, maktablar-20%, ko'chalar - 10% [6]. Aynan bolaga yaqin odamlar, asosan, albatta, ota-onalar bolaning ulg'ayishini nazorat qilishlari, u bilan muloqot qilishlari, har doim muammolar va tajribalar haqida bilishga harakat qilishlari kerak, ayniqsa o'spirinlik haqida gap ketganda, chunki bu davrda bolalar tengdoshlarining fikriga, internetda olingan ma'lumotlarga ko'proq bog'liq. Shuningdek, ijtimoiylashuv agentlari bolaning manfaatlariga (har bir yosh davrida), u kim bilan muloqot qilishiga, atrofdagi odamlarga qanday munosabatda bo'lishiga e'tibor berishlari kerak.

Oila inson ijtimoiylashuvining asosiy ildizi jamiyatning rivojlanishi, qadriyat va an'analarni avloddan-avlodga o'tkazib beruvchi, shu bilan birga, har bir davrda va makonda o'ziga xos tarbiya instituti hamdir. Shu nuqtai nazardan ham V.M.Karimova «ijtimoiy tasavvurlar doirasida oila to'g'risidagi tasavvurlar o'ziga xos muhim o'rin egallaydiki, bu shaxsning ijtimoiylashuvi, kamol topishi va hayotiy muhim sifatlarining shakllanishida oila institutining alohida ijtimoiy o'rni va ahamiyati bilan belgilanadi» [7], deb yozadi. Shuningdek D.R.Xoliqovning fikricha «Oila jamiyatning bir bo'lagi, uni boshqarishning o'ziga xos ilmi, madaniyati mavjud. Oiladagi iqtisodiy, ijtimoiy va ruhiy, ma'naviy muhitning tarkib topishi boshqarish darajasiga bog'liq» [8]. Oiladagi munosabatlar ta'siri ostida bolani ijtimoiylashtirish muammosining muhim jihati bolaga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, agar ota-onalardan biri yoki ikkalasi o'z farzandlariga shafqatsiz munosabatda bo'lishsa, qiyin hayotiy vaziyatlarda ularga yordam bermasalar, ularning qobiliyatlariga ishonmasalar, bolaning muammolarini "arzimas narsalar" deb hisoblasalar, o'z fikrlarini bildirish huquqini bermasalar va shu bilan ularning individualligini, shaxsiy "men" ni bostirsalar, bu uning kelajagiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday oilalarning bolalari jamiyatda tajovuzkor harakat qilishlari, boshqa bolalar bilan o'ynashlari, kelajakda o'zlariga bo'lgan ishonchni va boshqalarga bo'lgan ishonchni yo'qotishlari mumkin, yomon to'dalar va jinoiy faoliyatga jalb qilish xavfi mavjud.

Bolaning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun oila bolani tarbiyalashni, yetarlicha sharoit yaratib berishning butun mohiyatini anglashi va unga har tomonlanma namuna sifatida o'zini namoyon qilishi juda muhimdir. Hozirgi kunda ko'p davlatlarda odamlarning bevaqt o'limi sababining 23 foizi tibbiy xizmat ko'rsatishning pastligiga bog'liq bo'lsa, 71 foizi ijtimoiy va oilaviy sharoitga bog'liq [9]. Ota-onalar bolaligidan bolalarga bilim, san'at, ijodga bo'lgan muhabbatni singdirishlari kerak, bu esa yuqori axloqiy, bilimli odamning rivojlanishiga hissa qo'shadi Aksincha bolaning ijtimoiylashuvi muvaffaqiyatsiz bo'lishiga oilada xavf-hatar omillari ko'p bo'lishi sabab bo'ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "Iqtidorli, tarbiyali bolalar bilan ishlash oson, lekin hayotda qoqilgan yoki yomon muhitga tushib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga, ezgu maqsadga davat qilish, ishontirish qiyin" [10], deb ta'kidlab o'tgan. Demak birinchidan, xavf guruxidagi oila muhitidagi bolalarni ijtimoiylashtirish orqali tarbiyalashning o'ziga xos usullarini tadqiq etish dolzab vazifa bo'lib qolmoqda

Xavf guruhida bo'lgan oila-bu ob'ektiv yoki sub'ektiv sharoitlarda ijtimoiy faoliyat qiyin bo'lgan va ular deyarli muqarrar ravishda hayotdagi qiyinchilik holatida bo'lgan oila [11] tushuniladi. Ko'pgina hollarda, bunday oila bolani tarbiyalash vazifalarini hayotdagi katta qiyinchiliklar bilan birlashtiradi. Ota-onalar, qoida tariqasida, adaptiv qobiliyatlarning sezilarli darajada pasayishi tufayli oilaviy ta'lim funksiyalarini bajara olmaydilar, shuning uchun bunday oilada bolani tarbiyalash jarayoni unchalik samarali emas. Ular bolaning xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi, bolalarga nisbatan huquqi buzilgan xatti-harakatlar qiladi [12]. Shuningdek, "xavf guruxi bo'lgan oila" deganda tuzilishi buzilgan, ichki chegaralari "xiralashgan", asosiy oilaviy funksiyalari qadrsizlangan yoki e'tiborsiz qoldirilgan, tarbiyaning aniq yoki yashirin nuqsonlari bo'lgan, natijada psixologik iqlim buzilgan va "qiyin" vaziyatdagi bolalar paydo bo'lgan oila [13,23]ni tushuniladi.

Shunday qilib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xil jinoyatlarni sodir etgan insonlar turli xavf guruhidagi oilalarda o'sgan. Masalan, ota-onalarning noto'g'ri xatti-harakatlari, masalan, nazoratsizlik [14], haddan tashqari ruxsat beruvchi qoidalar, nomuvofiq yoki juda qattiq intizom, zaif rishtalar va aniq chegaralarni o'rnatishga qodir emaslik [15], tartib va intizom yo'qligi bilan ajralib

turadigan oilalarning o'smirlari [16] huquqbuzarlik uchun kuchli xavf omillari sifatida belgilash mumkin.

Pitsburg [17] va Kembrij [18] tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, otasi, onasi, ukasi yoki opa-singillari jinoiy xatti-harakatlarga ega bo'lish o'g'il bolalarda huquqbuzarlik uchun muhim xavf omilidir. Ota-onalarning jinoyati bilan bog'liq xavf omillari orasida otaning jinoiy xatti-harakati eng ta'sirlilaridan biri hisoblanadi: otalari jinoiy faoliyatda ishtirok etgan o'g'il bolalarning 63 foizi xuddi shunday qilish xavfi ostida [19]. Ota-onasi giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan o'n besh yoshli bolalar giyohvand moddalarni iste'mol qilish ehtimoli ikki baravar ko'p [20]. Ushbu ma'lumotlardan shuni ta'kidlash mumkinki, oiladagi xavf omillari to'planishi natijasida xavf guruhidagi oila shakllanadi va bunday oilada tarbiyalangan bolani samarali ijtimoiylashuvi qiyinchiliklar yuz beradi. Xuddi shu holatda, endi xavf guruhidagi oilalar farzandlarini samarali ijtimoiylashuviga erishishda umumta'lim maktabining ahamiyati oshadi.

ASOSIY QISM

Ikkilamchi sotsializatsiya deganda bolalar maktab kabi boshqa ijtimoiy muassasalarga olib boriladigan ijtimoiy o'rganishni nazarda tutadi. Maktab oiladan kam bo'lmagan noyob ijtimoiylashuv institutidir. Birinchidan, u dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida hayot yo'lining ma'lum bir bosqichida shaxslarning ijtimoiy shakllanishini belgilaydi. Dunyoda zamonaviy maktabga sotsializatsiya instituti sifatida munosib alternativaga ega bo'lgan yosh avlodning yanada muvaffaqiyatli, keng tarqalgan sotsializatsiya institutlari mavjud emas. Ikkinchidan, maktab har bir yigitning ijtimoiy shakllanishiga muntazam ravishda va uzoq vaqt davomida (11 yil) ta'sir qiladi. Maktabning o'quvchilarga ta'sirining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari maktab turidan, joylashgan joyidan yoki ta'lim sifatidan qat'i nazar o'zgarishsiz qoladi. Shuni ta'kidlash kerakki, maktabning ijtimoiylashuv funksiyalari ta'lim funksiyalariga qaraganda ancha kam tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi, chunki ta'lim funksiyalari to'g'ridan-to'g'ri va sotsializatsiya faqat yon ta'sir sifatida ishlaydi [21]. Maktabda ijtimoiylashuvning asosiy maqsadi bolani ijtimoiy jihatdan barkamol qilishdir. Bola maktab muhitida ijtimoiy, hissiy va intellektual faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak.

Amerikalik olim Bronfenbrenner tomonidan ta'kidlanganidek, bolalarning umumiy sotsializatsiyasi turli sohalarga tarqalgan bo'lib, ular bolalar hayotida boshdan kechiradigan ijtimoiy kontekstning turli joylariga qaratilgan [22]. Oilalar va maktablar sotsializatsiyaga asosiy hissa qo'shadi, ammo *ekologik tizimlar nazariyasi* doirasida boshqa sotsializatsiya tizimlari ham mavjud. Bola o'z atrof-muhitining ko'plab xususiyatlari bilan o'zaro ta'sir qiladi, bularning barchasi bolaning ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Bronfenberg ekologik tizimlar nazariyasi tahlil qilish jarayonida shunin anglab yetishimiz mumkinki, ijtimoiy muhit tarkibida to'rt daraja mavjud:


1) "mikrotizim ... bola bilan yaqin aloqada bo'lgan, bolaga bevosita ta'sir ko'rsatadigan har bir kishini o'z ichiga oladi";

2) "mezotizim ... mikrosistemaning turli sohalari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi (masalan, oila va maktab o'rtasida)";

3) "ekotizim ... ijtimoiy institutlar, hokimiyat organlari va ijtimoiy muhitning boshqa elementlari tomonidan taqdim etiladi, ular shaxs bevosita bog'liq emas, lekin unga ta'sir qiladi (masalan, inson ijtimoiy xizmatlar markazi, maktab ma'muriyati, shahar hokimiyati, ota-onalarning boshliqlari va boshqalar)";

4) "makrotizim... shu jumladan dominant hozirgi vaqtda ijtimoiy-madaniy me'yorlar, ijtimoiy vakillik va munosabat tizimlari, shuningdek, u yoki bu subkulturada mavjud bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor normalari va qoidalari".

Prerzidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Yangi O'zbekiston – kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko'mak va yordam berish, mehr-oqibat ko'rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir» [23], deb ta'kidlaydi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida esa, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishning yagona boshqaruv shaklini yaratish nihoyatda zarur ekanligi belgilandi [24].



1-rasm. U.Bronfenbrenner tomonidan ishlab chiqilgan «ekologik tizimlar nazariyasi» modeli

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbuslari bilan 2023-yil 1-iyundagi «Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida» gi farmoni bilan kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan oilalarga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yishga maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning hududiy bo'linmalari va shahar, tumanlarida «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilib, hozirda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shahar, tumanlarida «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari va uning mahallardagi mahallada kompleks xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlar tomonidan 1) nogironligi bo'lgan bolalar; 2) kam ta'minlangan oilalar; 3) to'liq bo'lmagan oiladagi bolalar; 4) ota-onasi xorijiy mamlakatga ishlashga ketgan bolalar; 5) yetim bolalar va ota-ona qaromog'idan mahrum bo'lgan bolalar; 6) 18 yoshgacha bo'lgan yolg'iz onalar va otalar; 7) tabiiy ofatlar va favqulotda vaziyatlar qurboni bo'lgan oilalar kabi toifadagi xavf guruhidagi oilalar va ularning bolalariga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatib ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi.

Xavf guruhidagi oila bolalari umumta'lim maktablarida samarali ijtimoiylashuviga erishish, sifatli bilim olishlari, bola huquqlari to'g'risidagi davlat va xalqaro huquqlarini himoya qilish uchun uchun maktab hamda ijtimoiy ish tashkiloti xisoblangan «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi va uning xodimi hisoblangan maxalla ijtimoiy xodimlari bilan hamkorlikda ishlashlari kerak.

Savol tug'iladi, umumta'lim maktabi va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazining mahalla ijtimoiy xodimlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik samarali bo'ladimi? Ushbu maqolada yuqoridagi savollarga javob topishga qaratilgan sotsiologik tadqiqot fikrlari bildirilgan.

Sotsiologik tadqiqotda Andijon viloyati Xonobod shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 60 nafar umumta'lim maktabi o'qituvchilari ishtirok etdi. Respondent o'qituvchilarning o'rtacha yoshi 45 yosh, ularning 75 foizi 40 yoshdan oshganlar. Respondentlarning 16% ga yaqini rahbarlik lavozimlarida (direktor yoki direktor o'rinbosari) ishlashadi. Boshqa barcha respondentlar tadqiqot vaqtida o'qituvchi lavozimini egallaganliklarini ko'rsatdilar. Dastlab respondentlarga ijtimoiy xodimlarini xavf guruhidagi oila bolalari bilan ishlashdagi roli haqida batafsil tushuncha berildi.

Shundan so'ng, dastlab, respondentlardan maktab sharoitida xavf guruhidagi oila bolalari bilan ishlashni qo'llab-quvvatlashini baholashga doir savol berildi. Ularning deyarli 80 foizi pedagogik va tarbiyaviy funksiyalardan tashqari, bunday bolalar atrofidagi vaziyatni yaxshilash

uchun ko‘proq ijtimoiy xizmat va yordam faoliyatini amalga oshirishlari haqidagi javobga to‘liq qo‘shildi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar, ayniqsa, oiladagi qiyin vaziyatlar bilan ishlash mahalladagi ijtimoiy xodimlarning vakolatlari doirasida bo‘lishi kerakligi, bu ushbu oila farzandini sifatli bilim olishiga erishishini respindentlarni 81 foizi ta’kidlashishdi. Respondentlarning deyarli 80 foizi bolaning ijtimoiy muammolarini hal qilish, uning ta’lim doirasidan tashqaridagi ya’ni ijtimoiy himoya tizimi yoki ushbu sohadagi aniq mutaxassisning vazifasi ekanligi deyilgan javobni belgilashgan. O‘qituvchilar odatda mahalla ijtimoiy xodimlari maktab sharoitlariga jalb qilishni qo‘llab-quvvatlaydilar. Bunday chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlovchilar ulushi 74 foizdan oshadi, 25 foizi esa bunday fikrga qo‘shilmasligini bildirdi.

Taqdim yetilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab va mahalla ijtimoiy xodimining o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari o‘quvchining oilasidagi og‘ir inqirozli vaziyatlar bilan ishlashda samarali ekanligini bilish mumkin. Shunday qilib, ta’lim muassasalari va ijtimoiy himoya bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shakllarini izlash va tahlil qilish ushbu va keyingi tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqdi.

Tadqiqotda maktab o‘qituvchilarining ta’lim muassasalari va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar haqidagi fikri va so‘rovnoma asosida maktabda mahalla ijtimoiy xodimga ehtiyoj borligi aniqlandi. Bizning fikrimizcha, mahalla ijtimoiy xodimi maktabdagi hamkorlik faoliyati bolaga va uning oilasiga paydo bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni tezda bartaraf etishga yordam berishi juda muhimdir.

O‘qituvchilar o‘rtasida olib borgan tadqiqotlarimiz tufayli ular sinf rahbar sifatida ko‘pincha o‘quvchilar bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy muammolarga duch kelishlarini va ularni mustaqil ravishda hal qilishga harakat qilishlarini, bu jarayonda qiynalishlarini aniqladik, ammo ular ta’kidlaganidek, bu ishni mahalla ijtimoiy xodimlar yaxshiroq bajarishi mumkin. Ularning fikriga ko‘ra, maktab rahbariyati va mahalla ijtimoiy xodimini hamkorlikda xavf guruhidagi oila farzandlari bilan ishlashi, o‘qituvchilarga asosiy ishlariga, ya’ni o‘quv va tarbiyaviy faoliyatga koproq e’tiborni qaratish imkonini beradi.

Respondentlarning 76 foizi maktabda ijtimoiy xodim hamkorligi mavjudligi ularning ishini qanday osonlashtirishi mumkinligini tushuntiradi:

- mahalla ijtimoiy xodimlar kasbiy malakasi maktab mutaxassislariga bolalarning ta’lim va tarbiyasini murakkablashtiradigan noqulay hayotiy vaziyatlar natijasida xavf ostida bo‘lgan bolalar hayotida yuzaga keladigan muammolarni to‘g‘ri tushunish va yengib o‘tishga yordam beradi. Bu maktab darajasida ijtimoiy ishlarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi va ijtimoiy xizmatlar bilan o‘zaro aloqani yaxshilaydi;

- mahalla ijtimoiy xodimlar maktab va oila o‘rtasidagi aloqani o‘zgartirishi va yaxshilashi mumkin;

- mahalla ijtimoiy xodimlar maktab va ijtimoiy ish muassasalari o‘rtasida vositachilik qilishlari mumkin. Ijtimoiy tizimning funksiyalari va imkoniyatlarini bilgan holda, ushbu xodimlar xavf ostida bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning maqbul va samarali usulini topishda o‘qituvchilarning ishini yengillashtirishi va oilalarni tegishli tuzilma yoki ijtimoiy xizmatga yo‘naltirishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, maktab – ijtimoiy ishning eng barqaror sohasi hisoblanadi. Insonning muammolari ijtimoiy-tarixiy jarayonga, uning mavjudligi va faoliyatining o‘ziga xos ijtimoiy – madaniy sharoitlariga bog‘liq. Maktab ta’limi jamiyatimizdagi ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanib, shaxsni ijtimoiy va huquqiy himoya qiladi, uning faol rivojlanishini ta’minlaydi. Maktab ta’lim tizimining boshqa muassasalariga xos bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hisobga olgan holda, mahalla ijtimoiy xodim ishtiroki tobora zarur bo‘lib bormoqda.

Tadqiqot natijalarini sarhisob qilib, shuni aytishimiz mumkinki, bolalarning farovonligi ikki ijtimoiy tashkilotning (maktab va «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazi) o‘qituvchi va ijtimoiy xodimlarining samarali o‘zaro hamkorligi bilan bog‘liq. Agar ular bir-birlarini yaxshi bilishsa va yuzaga keladigan noqulay vaziyatlarni hal qilish uchun uyg‘un ishlasalar, ularning birgalikdagi ishi

xavf guruhidagi oila bolalariga foydali ta'sir ko'rsatadi. Umumta'lim maktablarida xavf guruhida bo'lgan oila bolalar bilan ishlashda maktab o'qituvchilar sinf rahbar sifatida haddan tashqari yuklanishni boshdan kechirmoqda, chunki bunday holatlar ularning ishlarida tez-tez uchraydi. Ular o'z vakolatlariga ko'ra bolani malakali qo'llab-quvvatlay oladigan, o'qituvchilarning ishini yengillashtiradigan va ijtimoiy institutlar bilan aloqa o'rnatadigan ta'lim muassasalari bilan maktab ijtimoiy xodimlar bilan hamkorlik g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilar oilada turli xil inqirozlar mavjud bo'lganda ijtimoiy xizmatlar bilan bog'lanish zarurligini aniq ko'rishadi: oiladagi zo'ravonlik, oila muhitining o'quvchi farzandiga nisbatan xavfli va h.k. Umuman olgan umumta'lim maktabi va mahalla ijtimoiy xodimlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlovchi mexanizm yaratilishi xavf guruhidagi oila bolalarini maktabda sifatli ta'lim olishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. 2016. 8 декабрь. «Халқ сўзи» газетаси.
2. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. –8 б.
3. Колесов В.И. Семья как основа формирования личности в процессе воспитания в современном социуме // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. 2019. №1. С. 5-9.
4. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 85. (www.ziyouz.com кутубхонаси)
5. Фалсафа қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров) – Тошкент: Шарқ, 2004. –173-174 б
6. Шорстова О. В. Семья - как основа духовно-нравственного становления ребенка // Молодой ученый. 2016. №15. – С. 526-529.
7. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек оиласи тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар; Психология. фанлари номзоди. ...дис Фарғона Давлат университети. – Фарғона, 1994. 63 б.
8. Холиқов Д.Р. Ўқувчиларни миллий урф-одатлар асосида оилавий ҳаётга тайёрлаш/жинсий тарбия мисолида.: Дис ... пед. фан. номзоди/ Низомий номидаги ТДПИ. – Тошкент, 1993. 54 б.
9. Холматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. – Тошкент: 2000, 95 б.
10. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 533 б.
11. Агулина С.В., Рогова Ю.А. Семья «группы риска» как социальная и психолого-педагогическая проблема [Текст] / Северо-Кавказский федеральный университет. – Ставрополь, 2000.
12. Шульга Т.И. Работа с неблагополучной семьей [Текст]: учеб. пособие / Т.И. Шульга. – М.: Дрофа, 2005. – 254, |2| с.: ил.
13. Целуйко В.М. Вы и ваши дети. Психология семьи. [Текст] Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. 283 с.
14. Mucchielli, L. 2000. Familles et délinquances: un bilan pluridisciplinaire des recherches francophones et anglophones. (K. Mucchielli, Ed.). France: Allocations familiales, Caisses nationale d'allocations familiales (CNAF).
15. Lacourse, E., et al. 2006. "Prediction of Early-Onset Deviant Peer Group Affiliation: a 12-Year Longitudinal Study". Arch Gen Psychiatry, 63: 562-568.
16. Hoeve, M., et al. 2007. "Long-Term Effects of Parenting and Family Characteristics on Delinquency of Male Young Adults". European Journal of Criminology, 4: 161-194.
17. Loeber, R., et al. 1998. "The Development of Male Offending: Key Findings from the First Decade of the Pittsburgh Youth Study". Studies in Crime and Crime Prevention, 7: 141-172.

18. Farrington, D., et al. 2006. Criminal Careers up to Age 50 and Life Success up to Age 48: New Findings from the Cambridge Study in Delinquent Development. London: Home Office Research, Development and Statistics Directorate.
19. Farrington, D. 2002. "Developmental Criminology and Risk-Focused Prevention", in M. Maguire, R. Morgan and R. Reiner (eds), The Oxford Handbook of Criminology, Third Edition (657-701). Oxford: University of Oxford Press.
20. McVie, S. and L. Holmes. 2005. "Family Functioning and Substance Use at Ages 12 to 17". The Edinburgh Study of Youth Transition and Crime (No. 9). Edinburgh: The University of Edinburgh, Centre for Law and Society.
21. Andrienko, E. V. (2000). Social psychology. Moscow: Akademiya.: V. 55-56 https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=44219
22. Qarang: Wright, M. (2013). What is Bronfenbrenner's Ecological Systems Theory. Retrieved from <https://www.socialworkhelper.com/2013/05/13/ecological-systems-theory-and-practice-visualizing-human-systems/>
23. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2022. B.278
24. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022 –2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида// Халқ сўзи, 2022 йил 1 февраль, No 23 (8085)

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000